

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI BOSH HARFLAR IMLOSIGA O'RGATISH METODIKASI

Ernazarova Laylo Abdusaitovna

O'z-FIN pedagogika instituti assistenti

FarDU mustaqil izlanuvchisi

Muminova Nazokat

O'z-FIN pedagogika instituti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lgan orfografiya haqida so'z boradi. Unda bosh harflar imlosiga doir ma'lumotlar qayd etilib, interfaol usullar yordamida o'rganilishi qayd etilgan. Imloviy to'g'ri yozish uchun bosh harflar imlosiga doir zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarur.

Kalit so'zlar: orfografiya, savodxonlik, imlo qoidalari, bosh harflar imlosi, interfaol usullar

Orfografiya bo'limi to'g'ri yozish qonun-qoidalari haqida ma'lumot beradi. Imloviy savodxon bo'lish har bir fuqaro uchun muhim sanaladi. Boshlang'ich ta'lim – inson kamolotining poydevori. Barchamizga ma'lumki, ta'limning dastlabki bosqichi o'quvchilarda, avvalo, xat va savod o'rgatishga qaratilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bosh harflar imlosiga doir bilim va ko'nikmalar hosil qilishda qator usul va metodlardan foydalaniladi. Avvalambor harflarni yozish va ketma-ketlik darajalari o'rgatib boriladi. O'quvchilar harf va tovushlar to'g'risida chuqur bilimlarga ega bo'lgandan so'ng ularga bosh harflar imlosi haqida tushunchalar berib o'tiladi.

Bosh harflar imlosi.

1. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli otlar bosh harf bilan boshlanadi. Erkinova Dilbar, Qayumiy, Anvar Obidjon kabi. Mazkur qoidani o'zlashtirishda “Mening shajaram”, “Ismim ma'nosi” kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday metodlardan foydalanish o'quvchilarni o'z shajarasini bilishga undab, milliy urf-odatlariga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek leksikologiya bo'limiga xos bilimlarni amalda qo'llashga doir ko'nikmalarni shakllantiradi.

2. Joy nomlari, ya'ni toponimlar bosh harf bilan boshlanadi. Andijon, Yangiyo'l (shaharlar); Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar); Bodomzor, Chig'atoy (mahallalar). Mazkur qoidaga mos holda “Mahallamiz yoki qishlog'imiz tarixi” mavzusida matn tuzish topshirig'i beriladi. Masalan, Zargarlik mahallasi qadim zamonlarda mazkur mahallada o'z ishining ustasi bo'lgan zargarlar istiqomat qilishgan, shu bois mahalla nomi hunar egalariga nisbat berib nomlangan.

3. Suv havzalariga qo'yilgan nomlar, ya'ni gidronimlar bosh harf bilan boshlanadi. Zarafshon, Sirdaryo (daryolar); Katta Farg'ona, Kirf (kanal) kabilar. Mazkur qoidani “Yelpig'ich” metodi yordamida mustahkamlash yaxshi natija beradi. Jumladan,

Okean nomlari: Tinch, Hind, Atlantika, Shimoliy muz.

Dengiz nomlari: Qora, Qizil, Barents, Yapon.

Daryo nomlari: Sirdaryo, Amudaryo, Chirchiq kabi.

4. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarning atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi. Hulkar, Qavs, Mirrix kabi. Yer, Quyosh, Oy, turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi. Yer, Quyosh atrofida Oy Yer atrofida aylanadi.

5. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek transport vositalari bosh harflar bilan boshlanadi “Tong”

mehmonxonasi, “Saodat” jurnali, “Navruz” xayriya jamg’armasi, “G’uncha” MTT, “Paxtakor” stadioni, “Qutlug’ qon” romani “Tanovor” kuyi, “Ozodlik” haykali.

6.Davlat, davlatning oily tashkilot va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so‘z bosh harf bilan yoziladi. O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Jahon Tinchlik Kengashi,

7.Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanadi. Bugun havo sovuq.

Boshlang‘ich sinflarda bosh harflar imlosi mavzusi bo‘yicha o‘quvchilarga mavzu yuzasdan sodda tushunchalar berib boriladi. “Kim savodxon?” usuli ham o‘quvchilar savodini chiqarishda foydalidir. Kichik guruhlarga bo‘linib, masallar asosida tayyorlangan kichik matnlar beriladi. Bunday tarqatmalarda barcha so‘zlar kichik harfda beriladi, biroq tinish belgilari to‘g‘ri qo‘yiladi.

Bo‘ri bilan laylak

Bo‘rining bo‘g‘ziga suyak tiqilib qoldi-yu joni ko‘ziga ko‘rinib, yordam istab yugurgilab qoldi. Baxtini qarangi, laylakka duch keldi: Suyakni chiqarib tashlasang, mukofotlayman, deya va‘dalar berib yordam so‘radi. Laylak tumshug‘i-yu boshini bo‘rining bo‘g‘zigacha tiqib, arang suyakni chiqarib oldi-da, va‘da qilingan mukofotni talab qildi. Bo‘ri bunga javoban dedi: «Ha, azizim, bo‘rining og‘zidan boshing omon chiqqani kammi, yana mukofot deysan-a?!»

Alqissa, ayrim badfe‘l kishilar yomonlik qilmaganlarining o‘ziniyoq yaxshilik qilganga yo‘yadilar.

Boshlang‘ich sinf bilimlar poydevoridir, shu sababli savodxonlikni aynan mazkur davrdan boshlash eng maqbul yo‘l. Darhaqiqat, kichik maktab yoshidan o‘quvchilarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatish – kelgusi ilmlar uchun yo‘l ochadi. Yuqoridan qayd etilgan usullar esa bu borada g‘oyat ahamiyatlidir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. UMUMIY SAVODXONLIK. SAVODXONLIK SO‘ZINING MA‘NOSI //MYWORDWORLD.RU
2. E.A.Begmatov, A.P.Madvaliyev. O‘zbek tilining imlo lug‘ati.–Toshkent: Akademnashr. 2013.
3. E.A.Begmatov, A.P.Madvaliyev. O‘zbek tilining imlo lug‘ati.–Toshkent: Akademnashr. 2013.
- 4.Baxtiyor Mengliyev, Sharofat Toshmirzayeva, Saodat Atoyeva, Saida Majidova Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 11- sinfi uchun darslik. Toshkent:O‘qituvchi“ 2020.